

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

MEXANIKA – MATEMATIKA FAKULTETI

MATEMATIK MODELLASHTIRISH KAFEDRASI

5480100 -“AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA” YO'NALISHI
BO'YICHA BAKALAVR AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Mulohazalar hisobini keltirib chiqarish qoidalarining algoritmi va
dasturlarini tuzish

Fakultet dekani:

prof. A. Soleev

Himoyaga tavsiya etildi

Bajardi:4-kurs kunduzgi bo'lim
talabasi Nematov Farrux
Narzullayevich

Kafedra mudiri v.b.

_____ dots. O'runbayev E.

Ilmiy rahbar:

“ _____ ” _____ 2012

dots: I.N. Bozorov

S A M A R Q A N D – 2012

MUNDARIJA

Kirish	3
I-Bob. Mulohazalar hisobining asosiy tushunchalari.....	6
1.1. Mulohazalar hisobi formulasi tushunchasi.....	6
1.2. Isbotlanuvchi formula ta’rifi. Mulohazalar hisobining aksiomalar tizimi. Keltirib chiqarish qoidalari.....	7
1.3. Keltirib chiqarish qoidasining hosilalari.....	10
1.4. Formulalar majmuasidan formulani keltirib chiqarish qoidasi.....	11
1.5. Keltirib chiqarish (isbotlash) tushunchasi.....	12
1.6. Mulohazalar algebrasi va mulohazalar hisobi o’rtasidagi munosabatlar...	13
II Bob Tekislikda uchburchaklar	15
2.1. Uchburchak ta’rifi va asosiy formulalar.....	15
2.2. Uchburchak uchun geometriya masalasini formallashtirish.....	20
2.3. Tekislikdagi uchburchak haqidagi masalalarini shakllantirish va yechishning dasturiy vositasini yaratish.....	29
2.4. Dasturiy vositani yaratish bo’yicha asosiy tushunchalar va ssenariylar...	30
2.5. Dasturiy majmuaning tavsifi.....	34
2.6. Dasturdan foydalanuvchilar uchun ko’rsatma.....	39
Xulosa.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	45
Ilova	

Kirish

Masalaning qo'yilishi. Mulohazalar hisobini keltirib chiqarish qoidalaridan foydalanib, tekislikda berilgan uchburchaklar haqidagi masalalarni yechish algoritmi va dasturiy vositasini yaratish.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, hozirgi vaqtda ko'pgina jarayonlarni o'rganish kompyuter yordamida tadqiq qilinmoqda. Bunda ko'pincha mulohazalar hisobidan keng foydalanishga to'g'ri keladi, ya'ni qaralayotgan jarayonning har xil holatlari formallashtirilib, mulohazalar hisobining keltirib chiqarish qoidalariga asosan elementar bilimlar bazasi hosil qilinadi. So'ngra undagi elementar bilimlar bazasidan berilgan ma'lumot va talab qilingan shartga asosan tuzilgan dastur yordamida yangi bilim hosil qilinadi.

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi mulohazalar hisobini keltirib chiqarish qoidalarini amalga oshirish algoritmi va dasturlarini tuzishdan iborat bo'lib, uning tatbiqi sifatida tekislikdagi "uchburchak" larga oid turli masalalarni yechish jarayonini modellashtirish uchun masalaning qo'yilishida berilgan parametrlar bilan uni yechish usuli (formulalari) o'rtasida mantiqiy keltirib chiqarish munosabatlarini hosil qilish va ularning ob'ektga yo'naltirilgan "Delphi" dasturlash tilida dasturiy vositalarini yaratishdan iborat.

Mavzuning o'rganilish darajasi. XX asr boshlarida ingliz faylasufi va mantiqchisi B.Rassel tamonidan «Matematika prinsiplari» kitobida mulohazalar va sinflar hisob nazariyasi ishlab chiqildi. B.Rassel, A.Uaytxed bilan hamkorlikda yozgan 3 tomlik «Matematika prinsiplari» kitoblari matematik mantiq fanining rivojlanishida katta rol o'ynadi. Bu kitoblarda mulohaza, sinf va predikatlar hisobi deyarli to'liq aksiomalashtirildi va formallashtirildi.

Mulohazalar hisobi va uni keltirib chiqarish qoidalari haqidagi umumiy ma'lumotlar [6-7] adabiyotlarda batafsil yoritilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida olingan natijalar ilmiy-uslubiy xarakterga ega bo'lib, unda tekislikda berilgan turli uchburchak t);

haqidagi (sodda) masalalarni yechish uchun mo'ljallangan dasturiy vosita ishlab chiqilgan.

Tadqiqot predmeti va ob'ekti. Tadqiqotning ob'ekti tekislikda berilgan har xil uchburchaklar: aylanaga ichki va tashqi chizilgan, to'g'ri burchakli, muntazam uchburchaklardan iborat.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishda ishlab chiqilgan dasturiy vositadan uslubiy qo'llanma sifatida umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining geometriya darslarida tekislikda berilgan turli uchburchak haqidagi (sodda) masalalarni yechishda qo'llash mumkin.

Ishning tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, **kirish** qismida masalaning qo'yilishi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, mavzuning o'rganilish darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati hamda olingan natijalarning qisqacha bayoni (annotatsiyasi) keltirilgan.

Ishning **I bobi** 6 ta paragrafdan iborat bo'lib, unda olingan natijalarni bayon qilishda zarur bo'lgan asosiy tushunchalar: mulohazalar hisobi formulasi tushunchasi, isbotlanuvchi formula ta'rifi, mulohazalar hisobining aksiomalar tizimi, keltirib chiqarish qoidalari va uning natijalari, formulalar majmuasidan formulani keltirib chiqarish qoidasi mulohazalar algebrasi va mulohazalar hisobi o'rtasidagi munosabatlar bayon qilingan.

II bobi esa 6 ta paragrafdan iborat bo'lib, unda uchburchak ta'rifi va asosiy formulalar, uchburchak uchun berilgan masala formallashtirilib, tekislikdagi uchburchak haqidagi masalalarini shakllantirish va yechishning dasturiy vositasi yaratilgan, dasturiy vositani yaratish bo'yicha asosiy tushunchalar va ssenariylar ishlab chiqilgan, dasturiy majmuaning tavsifi keltirilib, dasturdan foydalanuvchilar uchun ko'rsatmalar berilgan.

Olingan natijalarning qisqacha mazmuni. Ishda mulohazalar hisobini keltirib chiqarish qoidalarini amalga oshirish algoritmi tuzilib, uning tatbiqi sifatida tekislikdagi "uchburchak" larga oid turli masalalarni yechishga

t);

mo'ljallangan ob'ektga yo'naltirilgan "Delphi" dasturlash tilida dasturiy vosita yaratilgan.

t);

I-Bob. Mulohazalar hisobining asosiy tushunchalari

Bu bobda olingan natijalarni bayon qilishda zarur bo'lgan asosiy tushunchalar: mulohazalar hisobi formulasi tushunchasi, isbotlanuvchi formula ta'rifi, mulohazalar hisobining aksiomalar tizimi, keltirib chiqarish qoidalari va uning natijalari, formulalar majmuasidan formulani keltirib chiqarish qoidasi mulohazalar algebrasi va mulohazalar hisobi o'rtasidagi munosabatlar bayon qilingan.

Mulohazalar hisobi aksiomatik mantiqiy sistema bo'lib, mulohazalar algebrasi esa uning interpretasiyasidir (talqinidir).

Berilgan aksiomalar sistemasini negizida (bazasida) qurilgan aksiomatik nazariya deb shu aksiomalar sistemasiga tayanib isbotlanuvchi hamma teoremlar majmuasiga aytiladi.

Aksiomatik nazariya formal va formalmas nazariyalarga bo'linadi.

Formalmas aksiomatik nazariya nazariy-to'plamiy mazmun bilan to'ldirilgan bo'lib, keltirib chiqarish tushunchasi aniq berilmagan va bu nazariya asosan fikr mazmuniga tayanadi.

Qaralayotgan aksiomatik nazariya uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo'lsa, ya'ni:

- 1) nazariyaning tili berilgan;
- 2) formula tushunchasi aniqlangan;
- 3) aksiomalar deb ataladigan formulalar to'plami berilgan;
- 4) bu nazariyada keltirib chiqarish qoidasi aniqlangan bo'lsa, formal aksiomatik nazariya aniqlangan deb hisoblanadi.

Quyida mulohazalar hisobining simvollari, formulasi, aksiomalar sistemasini, keltirib chiqarish qoidalari, formulalar majmuasidan formulani keltirib chiqarish qoidasi, deduksiya va umumlashgan deduksiya teoremlari, ayrim mantiq qonunlarining isboti, mulohazalar algebrasi va mulohazalar hisobi o'rtasidagi munosabatlar, mulohazalar hisobida yechilish, zidsizlik, to'liqlilik va erkinlik muammolari kabi masalalar bayon etiladi.

t);

1.1. Mulohazalar hisobi formulasi tushunchasi

Har qanday hisobning tafsili bu hisobning simvollari tafsilidan, formulalar va keltirib chiqarish formulalari ta'rifidan iborat.

Mulohazalar hisobida uch kategoriyali simvollardan iborat alfavit qabul qilinadi:

Birinchi kategoriya simvollari: $x, y, z, \dots, x_1, x_2, \dots$. Bu simvollarni o'zgaruvchilar deb ataymiz.

Ikkinchi kategoriya simvollari: $\vee, \wedge, \rightarrow, -$. Bular mantiqiy bog'lovchilardir. Birinchisi – diz'yunksiya yoki mantiqiy qo'shish belgisi, ikkinchisi – kon'yunksiya yoki mantiqiy ko'paytma belgisi, uchinchisi – implikasiya belgisi va to'rtinchisi – inkor belgisi deb ataladi.

Uchinchi kategoriyaga qavs deb ataladigan (,) simvol kiritiladi.

Mulohazalar hisobida boshqa simvollar yo'q.

Mulohazalar hisobining formulasi deb mulohazalar hisobi alfaviti simvollarining ma'lum bir ketma-ketligiga aytiladi.

Formulalarni belgilash uchun lotin alfavitining katta harflaridan foydalanamiz. Bu harflar mulohazalar hisobining simvollari qatoriga kirmaydi. Ular faqatgina formulalarning shartli belgilari bo'lib xizmat qiladi.

Endi formula tushunchasi ta'rifini beraylik. Bu tushuncha quyidagicha aniqlanadi:

- 1) har qanday $x, y, z, \dots$ o'zgaruvchilarning istalgan biri formuladir;
- 2) agar A va B larning har biri formula bo'lsa, u holda $(A \wedge B)$, $(A \vee B)$, $(A \rightarrow B)$ va $\bar{A}$ lar ham formulalardir.
- 3) boshqa hech qanday simvollar satri formula bo'la olmaydi.

O'zgaruvchilarni elementar formulalar deb ataymiz.

Misol. Formula ta'rifining 1-bandiga ko'ra $x, y, z, \dots$ o'zgaruvchilar formulalar bo'ladi. U vaqtda ta'rifning 2-bandiga muvofiq $(x \wedge y)$, $(x \vee y)$, $(x \rightarrow y)$,
t);

$\bar{x}$ lar ham formulalardir. Xuddi shu tariqada $(\overline{x \vee y})$, $((x \wedge y) \rightarrow z)$, $((x \wedge y) \rightarrow (y \rightarrow z))$ lar ham formulalar bo'ladi.

Qismaniy formula tushunchasini kiritamiz:

1. Elementar formula uchun faqat uning o'zi qismaniy formuladir.
2. Agar $\bar{A}$ formula bo'lsa, u vaqtda shu formulaning o'zi, A formula va A formulaning hamma qismaniy formulalari uning qismaniy formulalari bo'ladi.
3. Agar formula $A * B$ ko'rinishda bo'lsa (bu yerda va bundan keyin $*$ o'rniga $\vee$, $\wedge$, $\rightarrow$ cimvollarning istalganini tushunamiz), u vaqtda shu formulaning o'zi, A va B formulalar hamda A va B formulalarning barcha qismaniy formulalari $A * B$ formulaning qismaniy formulalari bo'ladi.

Masalan, $((x \vee \bar{y}) \rightarrow (\overline{z \rightarrow y}))$ formula uchun:

$((x \vee \bar{y}) \rightarrow (\overline{z \rightarrow y}))$ - nolinch chuqurlikdagi qismaniy formula,

$(x \vee \bar{y})$, $(\overline{z \rightarrow y})$ - birinchi chuqurlikdagi qismaniy formulalar,

x , $\bar{y}$, $(z \rightarrow y)$ - ikkinchi chuqurlikdagi qismaniy formulalar,

y , $\bar{z}$ - uchinchi chuqurlikdagi qismaniy formulalar,

z - to'rtinchi chuqurlikdagi qismaniy formula deb ataladi.

Formulalarni yozishda ayrim soddalashtirishlarni qabul qilamiz. Xuddi mulohazalar algebrasidagi kabi formulalar yozuvidagi qavslarni tushirib qoldirishga kelishamiz. Bu kelishuvga binoan $((x \vee y) \wedge z)$, $(\overline{x \wedge y})$, $((x \wedge y) \rightarrow (z \wedge t))$ formulalarni mos ravishda $x \vee y \wedge z$, $\overline{x \wedge y}$, $x \wedge y \rightarrow z \wedge t$ ko'rinishda yozamiz.

1.2. Isbotlanuvchi formula ta'rifi. Mulohazalar hisobining aksiomalar tizimi.

Keltirib chiqarish qoidalari

Endi mulohazalar hisobida isbotlanuvchi formulalar sinfini ajratamiz. Isbotlanuvchi formulalar formulalar ta'rifiga o'xshash xarakterda ta'riflanadi.

Avval dastlabki isbotlanuvchi formulalar (aksiomalar), undan keyin esa keltirib chiqarish qoidasi aniqlanadi. Keltirib chiqarish qoidasi orqali bor isbotlanuvchi formulalardan yangi isbotlanuvchi formulalar hosil qilinadi.

t);

Dastlabki isbotlanuvchi formulalardan keltirib chiqarish qoidasini qo'llash yo'li bilan yangi isbotlanuvchi formulalarni hosil etishga shu formulalarni aksiomalardan keltirib chiqarish deb aytiladi.

Mulohazalar hisobining aksiomalar tizimi. Mulohazalar hisobining aksiomalar tizimi XI aksiomadan iborat bo'lib, bular to'rt guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh aksiomalari:

$$I_1 \quad x \rightarrow (y \rightarrow x).$$

$$I_2 \quad (x \rightarrow (y \rightarrow z)) \rightarrow ((x \rightarrow y) \rightarrow (x \rightarrow z)).$$

Ikkinchi guruh aksiomalari:

$$II_1 \quad x \wedge y \rightarrow x.$$

$$II_2 \quad x \wedge y \rightarrow y.$$

$$II_3 \quad (z \rightarrow x) \rightarrow ((z \rightarrow y) \rightarrow (z \rightarrow x \wedge y)).$$

Uchinchi guruh aksiomalari:

$$III_1 \quad x \rightarrow x \vee y.$$

$$III_2 \quad y \rightarrow x \vee y.$$

$$III_3 \quad (x \rightarrow z) \rightarrow ((y \rightarrow z) \rightarrow (x \vee y \rightarrow z)).$$

To'rtinchi guruh aksiomalari:

$$IV_1 \quad (x \rightarrow y) \rightarrow (\bar{y} \rightarrow \bar{x}).$$

$$IV_2 \quad x \rightarrow \bar{\bar{x}}.$$

$$IV_3 \quad \bar{\bar{x}} \rightarrow x.$$

O'rniga qo'yish qoidasi. Agar A mulohazalar hisobining isbotlanuvchi formulasi, x -o'zgaruvchi, B mulohazalar hisobining ixtiyoriy formulasi bo'lsa, u vaqtda A formula ifodasidagi hamma x lar o'rniga B formulani qo'yish natijasida hosil etilgan formula ham isbotlanuvchi formula bo'ladi.

A formuladagi x o'zgaruvchilar o'rniga B formulani qo'yish operatsiyasi (jarayoni)ni o'rniga qo'yish qoidasi deb aytamiz va uni quyidagi simvol bilan belgilaymiz:

$$\int_x^B (A).$$

t);

Zikr etilgan qoidaga quyidagi aniqliklarni kiritamiz:

a) Agar A faqat x o'zgaruvchidan iborat bo'lsa, u vaqtda $\int_x^B (A)$ o'rniga qo'yish B formulani beradi;

b) Agar A formula x dan farqli y o'zgaruvchidan iborat bo'lsa, u vaqtda $\int_x^B (A)$ o'rniga qo'yish A ni beradi;

v) Agar A o'rniga qo'yish aniqlangan formula bo'lsa, u vaqtda $\bar{A}$ formuladagi x o'rniga B formulani qo'yish natijasida o'rniga qo'yishning inkori kelib chiqadi, ya'ni $\int_x^B (\bar{A})$ o'rniga qo'yish $\int_x^{\bar{B}} A$ ni beradi.

g) Agar A_1 va A_2 formulalarda o'rniga qo'yish aniqlangan bo'lsa, u vaqtda $\int_x^B (A_1 * A_2)$ o'rniga qo'yish $\int_x^B (A_1) * \int_x^B (A_2)$ ni beradi.

Agar A isbotlanuvchi formula bo'lsa, uni $\neg A$ shaklda yozishga kelishamiz.

U holda o'rniga qo'yish qoidasini quyidagicha sxematik ravishda ifodalash mumkin:

$$\frac{\neg A}{\neg \int_x^B (A)}$$

va uni «agar A isbotlanuvchi formula bo'lsa, u vaqtda $\int_x^B (A)$ ham isbotlanuvchi formula bo'ladi» deb o'qiladi.

Xulosa qoidasi. Agar A va $A \rightarrow V$ lar mulohazalar hisobining isbotlanuvchi formulalari bo'lsa, u holda V ham isbotlanuvchi formula bo'ladi. Bu qoida quyidagicha sxematik ravishda yoziladi:

$$\frac{\neg A; \neg A \rightarrow B}{\neg B}.$$

Isbotlanuvchi formulaning ta'rifi.

a) Har qanday aksioma isbotlanuvchi formuladir;

t);

b) Isbotlanuvchi formuladagi x o'zgaruvchi o'rniga ixtiyoriy B formulani qo'yish natijasida hosil bo'lgan formula isbotlanuvchi formula bo'ladi.

v) A va $A \rightarrow B$ isbotlanuvchi formulalardan xulosa qoidasini qo'llash natijasida olingan V formula isbotlanuvchi formuladir;

g) Mulohazalar hisobining boshqa hech qanday formulasi isbotlanuvchi deb sanalmaydi.

Ta'rif. *Isbotlanuvchi formulalarni hosil etish prosessi (jarayoni)ga isbot qilish (isbotlash) deb aytiladi.*

1.3. Keltirib chiqarish qoidasining hosilalari

Xulosa va o'rniga qo'yish qoidalari singari keltirib chiqarish qoidasining hosilalari ham yangi isbotlanuvchi formulalar hosil qilishga imkon yaratadi.

Bir vaqtda o'rniga qo'yish qoidasi.

Ta'rif. *Agar $A(x_1, x_2, \dots, x_n)$ – isbotlanuvchi formula va $B_1, B_2, \dots, B_n$ mulohazalar hisobining ixtiyoriy formulalari bo'lsa, u vaqtda A formulaning $x_1, x_2, \dots, x_n$ o'zgaruvchi-lari o'rniga bir vaqtda mos ravishda $B_1, B_2, \dots, B_n$ formulalarni qo'yish natijasida C isbotlanuvchi formulani hosil qilish, bir vaqtda o'rniga qo'yish qoidasi deb ataladi.*

$z_1, z_2, \dots, z_n$ lar $A, B_1, B_2, \dots, B_n$ formulalardagi boshqa o'zgaruvchilardan farq qiluvchi o'zgaruvchilar va $z_i \neq z_j (i, j = \overline{1, n})$ bo'lsin. U holda A formulaga n ta ketma-ket o'rniga qo'yishni bajaramiz: avval x_1 o'rniga z_1 ni, keyin x_2 o'rniga z_2 ni va hokazo x_n o'rniga z_n ni qo'yamiz. Natijada quyidagi isbotlanuvchi formulalarga ega bo'lamiz: $|\int_{x_1}^{z_1}(A)$ o'rniga qo'yish $|-A_1$ ni, $|\int_{x_2}^{z_2}(A_1)$ o'rniga qo'yish $|-A_2$ ni,, $|\int_{x_n}^{z_n}(A_{n-1})$ o'rniga qo'yish $|-A_n$ ni beradi.

Bundan keyin A_n formulaga nisbatan yana n ta ketma-ket o'rniga qo'yishni bajaramiz: avval z_1 o'rniga B_1 ni, keyin z_2 o'rniga B_2 ni va hokazo z_n o'rniga B_n ni;

ni qo'yib chiqamiz. Buning natijasida $|\int_{z_1}^{B_1}(A_n)$ o'rniga qo'yishdan $|-C_1$ ni, $|\int_{z_2}^{B_x}(C_1)$ o'rniga qo'yishdan $|-C_2$ ni, ..., $|\int_{z_n}^{B_n}(C_{n-1})$ o'rniga qo'yishdan $|-C_n$ ni hosil qilamiz.

Demak, C_n isbotlanuvchi formula A formuladagi $x_1, x_2, \dots, x_n$ o'zgaruvchilar o'rniga bir vaqtda mos ravishda $B_1, B_2, \dots, B_n$ formulalarni qo'yish natijasida hosil bo'ladi.

Bir vaqtda o'rniga qo'yish operatsiya (qoida)sini quyidagicha ifodalaymiz

$$\frac{|-A}{B_1, B_2, \dots, B_n} \quad (1)$$

Murakkab xulosa qoidasi. Bu qoidada

$$\vdash -A_1 \rightarrow (A_2 \rightarrow (A_3 \rightarrow (...(A_n \rightarrow L)...)))$$

ko'rinishdagi formulalarga nisbatan ikkinchi hosilaviy qoida ishlatiladi va uni quyidagi tasdiq orqali izohlash mumkin.

1.4. Formulalar majmuasidan formulani keltirib chiqarish qoidasi

$H = \{A_1, A_2, \dots, A_n\}$ chekli formulalar majmuasi (to'plami) berilgan bo'lsin. Bu formulalar majmuasidan formulani keltirib chiqarish tushunchasini beramiz.

Ta’rif. 1) Har qanday $A_i \notin H$ formulalar majmuasi H dan keltirib chiqariladigan formuladir.

2) Har qanday isbotlanuvchi formula H dan keltirib chiqariladi.

3) C va $C \rightarrow B$ lar H formulalar majmuasidan keltirib chiqarilgan formulalar bo'lsa, u holda B formula ham H dan keltirib chiqariladi.

Biror B formula H formulalar majmuasidan keltirib chiqariladigan bo'lsa, uni simvolik ravishda $H|_B$ shaklda yozamiz.

Agar H bo'sh to'plam yoki elementlari faqat isbotlanuvchi formulalardan iborat bo'lsa, u vaqtda H dan keltirib chiqariladigan formulalar sinfi isbotlanuvchi t);

formulalar sinfi bilan mos keladi. Agar formulalar majmuasi H ning hech bo'lmaganda bitta elementi isbotlanmaydigan formuladan iborat bo'lsa, u holda H dan keltirib chiqariladigan formulalar sinfi isbotlanuvchi formulalar sinfiga nisbatan kengroq bo'ladi.

1.5. Keltirib chiqarish (isbotlash) tushunchasi

Ta'rif. Agar $B_1, B_2, \dots, B_n$ chekli formulalar ketma-ketligining har qanday hadi quyidagi:

1) H formulalar majmuasining birorta formulasi;

2) isbotlanuvchi formula;

3) $B_1, B_2, \dots, B_n$ ketma-ketlikning istalgan ikkita oldinma-keyin keladigan elementlaridan xulosa qoidasiga asosan hosil qilinadi degan uch shartning birortasini qanoatlantirsa, u holda bu ketma-ketlik H chekli formulalar majmuasidan keltirib chiqarilgan deb aytiladi.

Oldingi paragrafdagi misolda ko'rsatildiki, $H = \{A, B\}$ dan quyidagi formulalar chekli ketma-ketligi keltirilib chiqariladi:

$$A, B, (A \rightarrow A) \rightarrow ((A \rightarrow B) \rightarrow (A \rightarrow A \wedge B)), B \rightarrow (A \rightarrow B),$$

$$A, B, A \rightarrow A, (A \rightarrow B) \rightarrow (A \rightarrow A \wedge B), A \rightarrow B, A \rightarrow A \wedge B, A \wedge B.$$

Agar murakkab xulosa qoidasidan foydalansak, u vaqtda (isbot) keltirib chiqarish formulalari quyidagicha bo'ladi:

$$A, B, (A \rightarrow A) \rightarrow ((A \rightarrow B) \rightarrow (A \rightarrow A \wedge B)),$$

$$B \rightarrow (A \rightarrow B), A \rightarrow A, A \rightarrow B, A \wedge B.$$

Formulani keltirib chiqarish va formulalar majmuasidan keltirib chiqarish ta'riflariga asosan keltirib chiqarishning quyidagi xossalari hosil bo'ladi:

- H formulalar majmuasidan keltirib chiqarilgan chekli ketma-ketlikning boshlang'ich qismi ham H dan keltirib chiqariladigan bo'ladi;

- agar H dan keltirib chiqarilgan ketma-ketlikning ikkita qo'shni hadlari (elementlari) orasiga H dan keltirib chiqarilgan qandaydir boshqa ketma-ketlik

t);

qo'yilsa, u vaqtda hosil etilgan yangi formulalar ketma-ketligi ham H dan keltirib chiqarilishi mumkin.

Haqiqatan ham, masalan, agar $B_1, B_2, \dots, B_i, B_{i+1}, \dots, B_k$ va $C_1, C_2, \dots, C_m$ lar H dan keltirib chiqarilsa, u vaqtda keltirib chiqarish ta'rifiga asosan $B_1, B_2, \dots, B_i, C_1, C_2, \dots, C_m, B_{i+1}, \dots, B_k$ ham H dan keltirib chiqariladigan bo'ladi.

- H formulalar majmuasidan keltirib chiqarilgan formulalar ketma-ketligining har qanday hadi H dan keltirib chiqariladigan formuladir.

- agar $H \subset W$ bo'lsa, u vaqtda H dan keltirib chiqarilgan har qanday formula W ning ham formulasi bo'ladi.

- B formula H dan keltirib chiqariladigan formula bo'lishi uchun H dan keltirib chiqarilgan ixtiyoriy formulalar ketma-ketligida bu formulaning mavjud bo'lishi yetarli va zarurdir.

Keltirib chiqarish qoidasi. H va W mulohazalar hisobining ikkita formulalar majmuasi bo'lsin. H, W orqali bu majmualarning yig'indisini (birlashmasini) belgilaymiz, ya'ni

$$H, W = H \cup W.$$

Agar W majmua bitta C formuladan iborat bo'lganda ham $H \cup \{C\}$ birlashmani H, C ko'rinishda yozamiz.

Endi keltirib chiqarishning asosiy qoidalarini ko'rib o'tamiz.

$$\text{I. } \frac{H|-A}{H, W|-A}.$$

Bu qoida bevosita formulalar majmuasidan keltirib chiqarish qoidasidan hosil bo'ladi.

$$\text{II. } \frac{H, C|-A, H|-C}{H|-A}.$$

$$\text{III. } \frac{H, C|-A, W|-C}{H, W|-A}.$$

$$\text{IV. } \frac{H|-C \rightarrow A}{H, C|-A}.$$

t);

1.6. Mulohazalar algebrasi va mulohazalar hisobi o'rtasidagi munosabatlar

Mulohazalar hisobi formulalarini xuddi mulohazalar algebrasi formulalari sifatida qarash mumkin. Buning uchun mulohazalar hisobi o'zgaruvchilariga mulohazalar algebrasi o'zgaruvchilari singari qaraymiz, ya'ni o'zgaruvchilar chin yoki yolg'on (1 yoki 0) qiymat oladi deb hisoblaymiz.

$\wedge, \vee, \rightarrow$ va $-$ amallarni mulohazalar algebrasidagiday aniqlaymiz.

Mulohazalar hisobining har bir formulasi, o'zgaruvchilar uning ifodasiga qanday kirishidan qat'iy nazar, 1 yoki 0 qiymat qabul qiladi. Uning qiymati mulohazalar algebrasidagi qoidalar bo'yicha hisoblanadi.

Mulohazalar hisobi formulasining qiymati tushunchasini aniqlaylik.

A -mulohazalar hisobi formulasi, $x_1, x_2, \dots, x_n$ lar esa A formula ifodasiga kiruvchi o'zgaruvchilar ($x_i \neq x_j$) bo'lsin. $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n$ lar orqali mos ravishda $x_1, x_2, \dots, x_n$ o'zgaruvchilarning qiymatlarini belgilaymiz, $\alpha_j \in E_2 = \{0, 1\}$. $(\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n)$ vektor 2^n ta qiymatlar satriga ega.

O'zgaruvchilarning bitta qiymatlar satri uchun A formulaning qiymati $R\alpha_1\alpha_2\dots\alpha_n(A)$ ni quyidagicha aniqlaymiz:

1. A formulaning eng katta uzunlikdagi qismaniy formulasi x_i bo'lganda, $R\alpha_1\alpha_2\dots\alpha_n(x_i) = \alpha_i$ bo'ladi.

2. Agar $k+1$ uzunlikdagi hamma qismaniy formulalari aniqlangan bo'lsa, u vaqtda $A_i \wedge A_j$, $A_i \vee A_j$, $A_i \rightarrow A_j$, $\bar{A}_i$ amallarning bajarilishi natijasida olingan k uzunlikdagi qismaniy formulalar quyidagi qiymatlarga ega bo'ladi:

$$R\alpha_1\alpha_2\dots\alpha_n(A_i \wedge A_j) = R\alpha_1\alpha_2\dots\alpha_n(A_i) \wedge R\alpha_1\dots\alpha_n(A_j),$$

$$R\alpha_1\dots\alpha_n(A_i \vee A_j) = R\alpha_1\dots\alpha_n(A_i) \vee R\alpha_1\dots\alpha_n(A_j),$$

$$R\alpha_1\dots\alpha_n(A_i \rightarrow A_j) = R\alpha_1\dots\alpha_n(A_i) \rightarrow R\alpha_1\dots\alpha_n(A_j),$$

$$R\alpha_1\dots\alpha_n(\bar{A}_i) = \overline{R\alpha_1\dots\alpha_n(A_i)}.$$

t);


t);

II Bob Tekislikdagi uchburchaklar

2.1. Uchburchak ta'rifi va asosiy formulalar


Ta'rif. Tekislikda bir vaqtda bir to'g'ri chiziqli yotmaydigan uch nuqtaning to'g'ri chiziqli bilan tutashishdan hosil bo'lgan figuraga **uchburchak** deyiladi (1-rasm), bunda a, b va c – uchburchak tomonlari.

Uchburchakning ichki va tashqi burchaklari. Tomonlar orasidagi bog'lanishlar ushbu: α, β, γ - ichki burchaklar, $\alpha_1, \beta_1, \gamma_1$ - tashqi burchaklar orqali ifodalanadi.



- a) $a+b>c$; $a+c>b$; $b+c>a$;
 b) $|a-b|<c$; $|a-c|<b$; $|b-c|<a$;
 c) $\alpha + \beta + \gamma = 180^0$; $\alpha_1 + \beta_1 + \gamma_1 = 360^0$;
 d) $\alpha_1 = \beta + \gamma$; $\beta_1 = \alpha + \gamma$; $\gamma_1 = \alpha + \beta$;

Uchburchak medianasi deb uchburchakning bir uchi bilan unga qarshi tomon o'rtasini tutashtiruvchi kesmaga aytiladi. Uchburchakda uchta mediana bo'lib, ular m_a, m_b, m_c kabi belgilanadi.



Mediananing xossalari

- a) Uchala mediana bir nuqtada kesishadi, bu nuqta medianani 2:1 nisbatda bo'ladi.

t);


b) Mediana uchburchakni ikkita yuzi teng uchburchaklarga ajratadi.

c) Mediana uzunliklari quyidagi formulalar yordamida topiladi:

$$m_a = \frac{1}{2} \sqrt{2b^2 + 2c^2 - a^2}; \quad m_b = \frac{1}{2} \sqrt{2a^2 + 2c^2 - b^2};$$

$$m_c = \frac{1}{2} \sqrt{2a^2 + 2b^2 - c^2}; \quad m_a^2 + m_b^2 + m_c^2 = \frac{3}{4}(a^2 + b^2 + c^2).$$

Uchburchakning burchak bissektrisasi deb **ichki** burchagini teng ikkiga bo'luvchi to'g'ri chiziqli kesmasiga aytiladi. Uchburchakda uchta bissektrisa bo'lib, ular l_a, l_b, l_c kabi belgilanadi.




Bissektrissaning xossalari

a) Uchala bissektrisa bir nuqtada kesishadi. Bu nuqta ichki chizilgan aylana markazi bo'ladi.

b) Bissektrisa qarshi tomonni qolgan tomonlarga nisbatan proportsional bo'laklarga ajratadi:

$$\frac{AB}{AD} = \frac{BC}{DC}$$




c) Bissektrisa uzunliklari quyidagi formulalardan topiladi:

$$l_a = \frac{2bc \cos \frac{\alpha}{2}}{b+c} = \frac{2}{b+c} \sqrt{bcp(p-a)}; \quad l_b = \frac{2ac \cos \frac{\beta}{2}}{a+c} = \frac{2}{a+c} \sqrt{acp(p-b)};$$

$$l_c = \frac{2ab \cos \frac{\gamma}{2}}{a+b} = \frac{2}{a+b} \sqrt{abp(p-c)}; \quad p = \frac{a+b+c}{2}.$$

Uchburchak balandligi deb uchburchak uchidan qarama-qarshi tomonga tushirilgan perpendikulyarga aytiladi. Uchburchakda uchta balandlik bo'lib, ular h_a, h_b, h_c kabi belgilanadi.



t);

Balandlikning xossalari

a) Uchala balandlik davom ettirilganda bir nuqtada kesishadi.

b) Balandlik uzunligi quyidagi formula yordamida topiladi:


$$h_a = \frac{2S}{a}; h_b = \frac{2S}{b}; h_c = \frac{2S}{c};$$

S – uchburchakning yuzi.

c) Uchburchakning tomonlari uning balandliklariga nisbatan teskari


proportsional: $a : b : c = \frac{1}{h_a} : \frac{1}{h_b} : \frac{1}{h_c}$.

Uchburchakning o'rta chizig'i deb tomonlar o'rtalarini tutashtiruvchi kesmaga aytiladi. O'rta chiziqlar soni ham uchta, ular $\bar{a}, \bar{b}, \bar{c}$ ko'rinishda belgilanadi.



a) Uchburchakning o'rta chizig'i tomonga parallel bo'lib, uning yarmiga teng: $\bar{a} = \frac{a}{2}; \bar{b} = \frac{b}{2}; \bar{c} = \frac{c}{2}$.

Uchburchakka tashqi chizilgan aylana markazi tomonlari o'rtasidan o'tkazilgan perpendikulyarlar kesishish nuqtasidan iborat.



t);

Sinuslar teoremasi: $\frac{a}{\sin \alpha} = \frac{b}{\sin \beta} = \frac{c}{\sin \gamma} = 2R;$

R – uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi.

8. Kosinuslar teoremasi:

$$a^2 = b^2 + c^2 - 2bc \cdot \cos \alpha;$$

$$b^2 = a^2 + c^2 - 2ac \cdot \cos \beta;$$

$$c^2 = a^2 + b^2 - 2ab \cdot \cos \gamma.$$

Tangenslar teoremasi:

$$\frac{a+b}{a-b} = \frac{\operatorname{tg} \frac{\alpha+\beta}{2}}{\operatorname{tg} \frac{\alpha-\beta}{2}} = \frac{\operatorname{ctg} \frac{\gamma}{2}}{\operatorname{tg} \frac{\alpha-\beta}{2}}; \quad \frac{b+c}{b-c} = \frac{\operatorname{tg} \frac{\beta+\gamma}{2}}{\operatorname{tg} \frac{\beta-\gamma}{2}} = \frac{\operatorname{ctg} \frac{\alpha}{2}}{\operatorname{tg} \frac{\beta-\gamma}{2}}.$$

Molveydo formulasi: $\frac{a+b}{c} = \frac{\cos \frac{\alpha-\beta}{2}}{\sin \frac{\gamma}{2}}; \frac{a-b}{c} = \frac{\sin \frac{\alpha-\beta}{2}}{\cos \frac{\gamma}{2}}.$

Proeksiyalar teoremasi:

$$a = b \cos \gamma + c \cos \beta;$$

$$b = c \cos \alpha + a \cos \gamma;$$

$$c = a \cos \beta + b \cos \alpha;$$

Ixtiyoriy uchburchakning yuzasi uchun formulalar:

a) $S = \frac{1}{2} a \cdot h_a; S = \frac{1}{2} b \cdot h_b; S = \frac{1}{2} c \cdot h_c;$

b) *Geron formulasi:* $S = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)};$

c) $S = \frac{1}{2} ab \sin \gamma; S = \frac{1}{2} bc \sin \alpha; S = \frac{1}{2} ac \sin \beta;$

d) $S = \frac{abc}{4R}; S = p \cdot r;$ R va r – tashqi va ichki chizilgan aylana radiusi,

p – yarim perimetr;

e) $S = \frac{4}{3} \sqrt{m(m-m_a)(m-m_b)(m-m_c)}; m = \frac{m_a + m_b + m_c}{2},$

m – uchburchakning og'irlik markazi.


t);

Tashqi chizilgan aylana radiusi uchun formulalar:

$$a) R = \frac{abc}{4S};$$

$$b) R = \frac{a}{2 \sin \alpha} = \frac{b}{2 \sin \beta} = \frac{c}{2 \sin \gamma};$$

$$c) R = \frac{a+b+c}{4 \cos \frac{\alpha}{2} \cos \frac{\beta}{2} \cos \frac{\gamma}{2}}.$$



Ichki chizilgan aylana radiusi uchun formulalar:

$$a) \text{Quyidagi munosabat o'rinlidir: } \frac{1}{r} = \frac{1}{h_a} + \frac{1}{h_b} + \frac{1}{h_c};$$

$$b) r = \frac{2S}{a+b+c}; \quad c) r = \frac{S}{p} = \sqrt{\frac{(p-a)(p-b)(p-c)}{p}};$$

$$d) r = (p-a) \tan \frac{\alpha}{2} = \frac{a \sin \frac{\beta}{2} \sin \frac{\gamma}{2}}{\cos \frac{\alpha}{2}}.$$

To'g'ri burchakli uchburchak


Ta'rif. Burchaklaridan biri 90° ga teng bo'lgan uchburchakga **to'g'ri burchakli uchburchak** deyiladi.

1. $\gamma = 90^\circ, \alpha + \beta = 90^\circ$, **a** va **b** – katetlar,

c – gipotenuza.

2. *Pifagor teoremasi:* $a^2 + b^2 = c^2$.

3. **Yuzi:** $S = \frac{1}{2} ab$;



Ichki chizilgan aylana radiusi: $r = \frac{a+b-c}{2}$.

4. Tashqi chizilgan aylana markazi gipotenuzaning o'rtasida joylashgan, radiusi esa uning yarmiga teng: $R = c/2$.

5. *To'g'ri burchakli uchburchaklarni yechish formulalari:*


No	Berilgan	Topish kerak		Yechish	

t);

1	c, α	β, a, b	$\beta = 90^\circ - \alpha$	$a = c \sin \alpha$	$b = c \cos \alpha$
2	a, α	β, b, c	$\beta = 90^\circ - \alpha$	$b = a \cdot \operatorname{ctg} \alpha$	$c = \frac{a}{\sin \alpha}$
3	a, b	α, β, c	$\operatorname{tg} \alpha = \frac{a}{b}$	$\beta = 90^\circ - \alpha$	$c = \sqrt{a^2 + b^2}$
4	a, c	α, β, b	$\sin \alpha = \frac{a}{c}$	$\beta = 90^\circ - \alpha$	$b = \sqrt{c^2 - a^2}$

6. Gipotenuzaga tushirilgan balandlik h_c va katetlarning gipotenuzadagi proektsiyasi xossasi:

$$\frac{a_c}{h_c} = \frac{h_c}{b_c}; \frac{a_c}{a} = \frac{a}{c}; \frac{b_c}{b} = \frac{h}{c}.$$




Muntazam uchburchak.

1. Muntazam uchburchakning hamma tomonlari va hamma burchaklari o'zaro teng bo'lib, har bir burchagi $\alpha = \beta = \gamma = 60^\circ$.

2. Teng tomonli uchburchakning *medianalari*, *bissektrissalari* va *balandliklari* ustma-ust tushadi va bir nuqtada kesishadi. Bu nuqta ichki va tashqi chizilgan aylana markazi bilan

ustma-ust tushadi: $h = m = l = \frac{a\sqrt{3}}{2}$.



3. Ichki va tashqi chizilgan aylana radiusi:

$$r = \frac{a}{2\sqrt{3}} = \frac{a\sqrt{3}}{6};$$

$$R = \frac{a}{\sqrt{3}} = \frac{a\sqrt{3}}{3}.$$

4. Tomoni: $a = 2\sqrt{3} \cdot r; a = \sqrt{3} \cdot R$.

5. Yuzi:

t);

$$a) S = \frac{a^2 \sqrt{3}}{4};$$

$$b) S = \frac{3R^2 \sqrt{3}}{4};$$

$$c) S = 3\sqrt{3} \cdot r^2.$$

2.2. Uchburchak uchun geometriya masalasini qo'yilishini formallashtirish

Ma'lumki, uchburchak haqidagi masalalarning berilishi asosan matn yoki chizma shaklida bo'ladi. Ushbu masalalarni yechilishini kompyuterda amalga oshirish uchun ularni formal tizimini hosil qilish kerak. Formal tizimni hosil qilish uchun esa masalaning parametrlari o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni tavsiflash kerak.

Uchburchakning parametrlari uchun mantiqiy funksiyalarni aniqlash

$x_1 - a$ tomon;

$x_2 - b$ tomon;

$x_3 - c$ tomon;

$x_4 - \alpha$, a tomon qarshisidagi ichki burchak;

$x_5 - \beta$, b tomon qarshisidagi ichki burchak;

$x_6 - \gamma$, c tomon qarshisidagi ichki burchak;

$x_7 - \alpha_1$, a tomon qarshisidagi tashqi burchak;

$x_8 - \beta_1$, b tomon qarshisidagi tashqi burchak;

$x_9 - \gamma_1$, c tomon qarshisidagi tashqi burchak;

$x_{10} - S$, uchburchakning yuzi;

$x_{11} - P$, uchburchakning perimetr;

$x_{12} - p$, yarimperimetr;

$x_{13} - R$, uchburchakga tashqi chizilgan aylana radiusi;

$x_{14} - r$, uchburchakga ichki chizilgan aylana radiusi;

$x_{15} - l_a$, a tomonga tushirilgan bissektrisa;

t);

$x_{16} - l_b$, b tomonga tushirilgan bissektrisa;
 $x_{17} - l_c$, c tomonga tushirilgan bissektrisa;
 $x_{18} - m_a$, a tomonga tushirilgan mediana;
 $x_{19} - m_b$, b tomonga tushirilgan mediana;
 $x_{20} - m_c$, c tomonga tushirilgan mediana;
 $x_{21} - h_a$, a tomonga tushirilgan balandlik;
 $x_{22} - h_b$, b tomonga tushirilgan balandlik;
 $x_{23} - h_c$, c tomonga tushirilgan balandlik;
 $x_{24} - c1(l)$, bissektrisa bo'lgan tomon birinchi bo'lagi;
 $x_{25} - c2(l)$, bissektrisa bo'lgan tomon ikkinchi bo'lagi;
 $x_{26} - \bar{a}$, a tomonga parallel o'rta chiziq;
 $x_{27} - \bar{b}$, b tomonga parallel o'rta chiziq;
 $x_{28} - \bar{c}$, c tomonga parallel o'rta chiziq;
 $x_{29} - \cos \alpha$, a tomon qarshisidagi ichki burchak kosinusi;
 $x_{30} - \cos \beta$, b tomon qarshisidagi ichki burchak kosinusi;
 $x_{31} - \cos \gamma$, c tomon qarshisidagi ichki burchak kosinusi;
 $x_{32} - \sin \alpha$, a tomon qarshisidagi ichki burchak sinusi;
 $x_{33} - \sin \beta$, b tomon qarshisidagi ichki burchak sinusi;
 $x_{34} - \sin \gamma$, c tomon qarshisidagi ichki burchak sinusi;
 $x_{35} - tg \alpha$, a tomon qarshisidagi ichki burchak tangensi;
 $x_{36} - tg \beta$, b tomon qarshisidagi ichki burchak tangensi;
 $x_{37} - tg \gamma$, c tomon qarshisidagi ichki burchak tangensi;
 $x_{38} - c1(h)$, balandlik bo'lgan tomon bo'lagi;
 $x_{39} - c2(h)$, balandlik bo'lgan tomon bo'lagi;
 $x_{40} - m$, uchburchakning o'g'irlik markazi;

Bajaruvchi protseduralarning berilishi:

$$TTM(a,b,m_c) - c = \sqrt{2a^2 + 2b^2 - 4m_c^2};$$

t);

$$\mathbf{TTM1}(a,b,m_a) - c = \sqrt{2m_a^2 - b^2 + \frac{a^2}{2}};$$

$$\mathbf{TBisB}(AD,DC) - AC = AD + DC;$$

$$\mathbf{TSH}(s,h) - a = \frac{2S}{h};$$

$$\mathbf{TTH}(b,h_a,h_b) - a = \frac{b \cdot h_b}{h_a};$$

$$\mathbf{TU}(a1) - a = 2\bar{a};$$

$$\mathbf{TSin}(a,\alpha,\beta) - b = \frac{a \sin \beta}{\sin \alpha};$$

$$\mathbf{TBR}(\alpha,R) - a = 2R \cdot \sin \alpha;$$

$$\mathbf{TCos}(b,c,\alpha) - a = \sqrt{b^2 + c^2 - 2bc \cdot \cos \alpha};$$

$$\mathbf{TSB}(S,\alpha,\beta,\gamma) - a = \sqrt{\frac{2S \sin \alpha}{\sin \beta \sin \gamma}};$$

$$\mathbf{TTP}(a,b,P) - c = P - (a + b);$$

$$\mathbf{TCosB}(a,b,\alpha,\beta) - c = a \cdot \cos \beta + b \cdot \cos \alpha;$$

$$\mathbf{TSTB}(S,a,\gamma) - b = \frac{2S}{a \sin \gamma};$$

$$\mathbf{TTBisB}(b,c,a_1) - a = \frac{b \cdot a_1}{c - a_1};$$

$$\mathbf{BTB}(\alpha_1) - \alpha = 180 - \alpha_1;$$

$$\mathbf{BB}(\alpha,\beta) - \gamma = 180 - (\alpha + \beta);$$

$$\mathbf{BSin}(sina) - \alpha = \arcsin(\sin a);$$

$$\mathbf{BCos}(cosa) - \alpha = \arccos(\cos a);$$

$$\mathbf{BBTB}(\alpha_1,\beta) - \gamma = \alpha_1 - \beta;$$

$$\mathbf{BTl}(a,b,l_c) - \gamma = \arccos\left(\frac{(a+b) \cdot l_c}{2ab}\right);$$

$$\mathbf{CosT}(a,b,c) - \cos a = \frac{b^2 + c^2 - a^2}{2bc};$$

t);

$$\text{CosB}(\alpha) - \cos a = \cos \alpha;$$

$$\text{CosSin}(sina) - \cos a = \sqrt{1 - \sin^2 a};$$

$$\text{SinBS}(S,a,b) - \sin c = \frac{2S}{ab};$$

$$\text{SinB}(\alpha) - \sin a = \sin \alpha;$$

$$\text{SinTR}(a,R) - \sin c = \frac{a}{2R};$$

$$\text{SinTB}(a,b,\beta) - \sin a = \frac{a \sin \beta}{b};$$

$$\text{SinCos}(cosa) - \sin a = \sqrt{1 - \cos^2 a};$$

$$\text{SinSin}(sina, sinb) - \sin c = \sin a \cdot \cos b + \cos a \cdot \sin b;$$

$$\text{Geron}(a,b,c) - S = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)};$$

$$\text{STH}(a,h_a) - S = \frac{a \cdot h_a}{2};$$

$$\text{STSin}(a,sina,sinb,sinc) - S = \frac{a^2 \cdot \sin b \cdot \sin c}{2 \sin a};$$

$$\text{STB}(a,\alpha,\beta,\gamma) - S = \frac{a^2 \cdot \sin \beta \cdot \sin \gamma}{2 \sin \alpha};$$

$$\text{STTB}(a,b,\gamma) - S = \frac{ab \cdot \sin \gamma}{2};$$

$$\text{STR}(a,b,c,R) - S = \frac{abc}{4R};$$

$$\text{SPR}(p,r) - S = p \cdot r;$$

$$\text{SBH}(h_a, \alpha, \beta, \gamma) - S = \frac{h_a^2 \cdot \sin \alpha}{2 \sin \beta \sin \gamma};$$

$$\text{SPB}(p, \alpha, \beta, \gamma) - S = \frac{p \cdot \sin \frac{\alpha}{2} \cdot \sin \frac{\beta}{2} \sin \frac{\gamma}{2}}{\cos \frac{\alpha}{2} \cdot \cos \frac{\beta}{2} \cos \frac{\gamma}{2}};$$

$$\text{YarPT}(a,b,c) - p = \frac{a+b+c}{2};$$

t);

$$\mathbf{YarPP}(P) - p = \frac{P}{2};$$

$$\mathbf{YarPSr}(S,r) - p = \frac{S}{r};$$

$$\mathbf{YarPSB}(S, \alpha, \beta, \gamma) - p = \sqrt{S \cdot \operatorname{ctg} \frac{\alpha}{2} \cdot \operatorname{ctg} \frac{\beta}{2} \cdot \operatorname{ctg} \frac{\gamma}{2}};$$

$$\mathbf{YarPTB}(r,a, \alpha) - p = r \cdot \operatorname{ctg} \frac{\alpha}{2} + a;$$

$$\mathbf{RTB}(a, \alpha) - R = \frac{a}{2 \sin \alpha};$$

$$\mathbf{RTB1}(a, \sin a) - R = \frac{a}{2 \sin a};$$

$$\mathbf{RTS}(a,b,c,S) - R = \frac{abc}{4S};$$

$$\mathbf{R1H}(h_a, h_b, h_c) - r = \frac{h_a \cdot h_b \cdot h_c}{h_b \cdot h_c + h_a \cdot h_c + h_a \cdot h_b};$$

$$\mathbf{R1TS}(a,b,c,S) - r = \frac{2S}{a+b+c};$$

$$\mathbf{R1SP}(S,p) - r = \frac{S}{p};$$

$$\mathbf{R1TBP}(a, \alpha) - r = (p-a) \operatorname{tg} \frac{\alpha}{2};$$

$$\mathbf{R1TB}(a, \alpha, \beta, \gamma) - r = \frac{a \sin \frac{\beta}{2} \sin \frac{\gamma}{2}}{\cos \frac{\alpha}{2}};$$

$$\mathbf{LTP}(a,b,c,p) - l = \frac{2}{b+c} \sqrt{bcp(p-a)};$$

$$\mathbf{LTB}(b,c, \alpha) - l = \frac{2bc}{b+c} \cdot \cos \frac{\alpha}{2};$$

$$\mathbf{MT}(a,b,c) - m_a = \frac{1}{2} \sqrt{2b^2 + 2c^2 - a^2};$$

$$\mathbf{HTS}(a,s) - h_a = \frac{2S}{a};$$

t);

$$\text{HTH}(a,b,h_b) - h_a = \frac{b \cdot h_b}{a};$$

$$\text{HBS}(\alpha, \beta, \gamma, S) - h_a = \sqrt{\frac{2S \cdot \sin \beta \sin \gamma}{\sin \alpha}};$$

Tomonlarni topish funktsiyalari:

$$1) x_1 x_2 x_{18} x_{19} x_{20} \vee x_1 x_3 x_{18} x_{19} x_{20} \vee x_2 x_3 x_{18} x_{19} x_{20} \rightarrow TTM(a, b, m_a, m_b, m_c);$$

$$2) x_{24} x_{25} \rightarrow TBisB(a_1, a_2);$$

$$3) x_{10} x_{21} \vee x_{10} x_{22} \vee x_{10} x_{23} \rightarrow TSH(S, h);$$

$$4) x_1 x_{21} x_{22} \vee x_2 x_{21} x_{22} \vee x_1 x_{21} x_{23} \vee x_2 x_{22} x_{23} \vee x_3 x_{21} x_{23} \vee x_3 x_{22} x_{23} \rightarrow TTH(a, h_a, h_b);$$

$$5) x_{26} \vee x_{27} \vee x_{28} \rightarrow TU(a_1);$$

$$6) x_1 x_4 x_5 \vee x_2 x_4 x_5 \vee x_1 x_4 x_6 \vee x_3 x_4 x_6 \vee x_2 x_5 x_6 \vee x_3 x_5 x_6 \rightarrow TSin(a, \alpha, \beta);$$

$$7) x_4 x_{13} \vee x_5 x_{13} \vee x_6 x_{13} \rightarrow TBR(\alpha, R);$$

$$8) x_2 x_3 x_4 \vee x_1 x_3 x_5 \vee x_1 x_2 x_6 \rightarrow TCos(b, c, \alpha);$$

$$9) x_4 x_5 x_6 x_{10} \rightarrow TSB(S, \alpha, \beta, \gamma);$$

$$10) (x_1 x_2 x_{24} \vee x_1 x_3 x_{24} \vee x_2 x_3 x_{24} \vee x_1 x_2 x_{25} \vee x_1 x_3 x_{25} \vee x_2 x_3 x_{25} \rightarrow \\ BisBulak(a, b, a_1)) \rightarrow TBisB(a_1, a_2);$$

$$11) x_2 x_3 x_{29} \vee x_1 x_3 x_{30} \vee x_1 x_2 x_{31} \rightarrow TTCos(b, c, \cos a);$$

$$12) x_1 x_{32} x_{33} \vee x_2 x_{32} x_{33} \vee x_1 x_{32} x_{34} \vee x_3 x_{32} x_{34} \vee x_2 x_{33} x_{34} \vee x_3 x_{33} x_{34} \rightarrow TTSin(a, \sin a, \sin b);$$

$$13) x_2 x_3 x_{30} x_{31} \vee x_1 x_3 x_{29} x_{31} \vee x_1 x_2 x_{29} x_{30} \rightarrow TCosT(a, b, \cos a, \cos b);$$

$$14) x_2 x_3 x_5 x_6 \vee x_1 x_3 x_4 x_6 \vee x_1 x_2 x_4 x_5 \rightarrow TCosB(a, b, \alpha, \beta);$$

$$15) (x_1 x_7 x_8 \vee x_1 x_7 x_9 \vee x_2 x_7 x_8 \vee x_2 x_8 x_9 \vee x_3 x_7 x_9 \vee x_3 x_8 x_9 \rightarrow BTB(\alpha_1)) \rightarrow TSin(a, \alpha, \beta);$$

$$16) (x_1 x_2 x_{34} \vee x_1 x_3 x_{33} \vee x_2 x_3 x_{32} \rightarrow BSin(\sin a)) \rightarrow TCos(a, b, \gamma);$$

$$17) x_1 x_6 x_{10} \vee x_2 x_6 x_{10} \vee x_2 x_4 x_{10} \vee x_3 x_4 x_{10} \vee x_1 x_5 x_{10} \vee x_3 x_5 x_{10} \rightarrow TSTB(S, a, \gamma);$$

$$18) ((x_1 x_2 x_{10} \vee x_1 x_3 x_{10} \vee x_2 x_3 x_{10} \rightarrow SinBS(S, a, b)) \rightarrow BSin(\sin a)) \rightarrow TCos(a, b, \gamma);$$

t);

$$19) (((x_1x_2x_{13} \vee x_1x_3x_{13} \vee x_2x_3x_{13} \rightarrow \text{SinBR}(a, R)) \rightarrow \text{BSin}(\sin a)) \rightarrow \text{BB}(\alpha, \beta)) \rightarrow \text{TSin}(a, \alpha, \gamma);$$

$$20) (x_1x_2x_{10}x_{14} \vee x_1x_3x_{10}x_{14} \vee x_2x_3x_{10}x_{14} \rightarrow \text{YarP}(S, r) \rightarrow \text{TpT}(a, b, p).$$

Ichki burchaklarni topish funktsiyalari:

$$1) (x_1x_2x_4 \vee x_1x_2x_5 \vee x_1x_3x_4 \vee x_1x_3x_6 \vee x_2x_3x_5 \vee x_2x_3x_6 \rightarrow \text{SinTB}(a, b, \alpha)) \rightarrow \text{BSin}(\sin \beta);$$

$$2) ((x_1x_2x_6 \vee x_1x_3x_5 \vee x_2x_3x_4 \rightarrow \text{TCos}(a, b, \gamma)) \rightarrow \text{SinTB}(b, c, \gamma)) \rightarrow \text{BSin}(\sin \beta);$$

$$3) (x_1x_{13} \vee x_2x_{13} \vee x_3x_{13} \rightarrow \text{SinTR}(a, R)) \rightarrow \text{BSin}(\sin \alpha);$$

